KARIMOVA Dilafruz Ravshanovna
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy fanlar kafedrasi
dotsenti, yu.f.d.
E-mail: afruza@ro.ru

O‘ZBEKISTONDA BOLALARNI ZARARLI AXBOROTLARDAN HIMOYA QILISHNING QONUNIY ASOSLARI

ПРАВОВАЯ ОСНОВА ЗАЩИТЫ ДЕТЕЙ ОТ ВРЕДНОЙ ИНФОРМАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

LEGAL FRAMEWORK FOR PROTECTING CHILDREN FROM HARMFUL INFORMATION IN UZBEKISTAN

Annotatsiya: *Mazkur maqolada axborotlashgan jamiyatda bolalar ma’naviyati, ahloqi va ruhiyatiga salbiy ta’sir etuvchi omillar tahlil etilgan. Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishning milliy huquqiy asoslari va javobgarlik masalalari tizimli ravishda o‘rganilgan. Shuningdek, maqolada bolalarni ma’naviy xatarlardan himoyalash va ularda ma’naviy immunitetni rivojlantirish masalalari bayon qilingan. Tahlillardan kelib chiqib, muammoni bartaraf etishning nazariy va amaliy asoslarini rivojlantirishga oid taklif va mulohazalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *bolalar, axborotlashgan jamiyat, zarar yetkazuvchi axborot, axborot immuniteti, zararli axborotdan himoya, qonun.*

Аннотация: *В данной статье анализируются факторы, которые негативно влияют на духовность, нравственность и психику детей в информационном обществе. Системно изучены национальные правовые основы защиты детей от информации, наносящей вред их здоровью, а также вопросы ответственности. В статье также рассматриваются вопросы защиты детей от духовных угроз и развития у них духовного иммунитета. На основе анализа выработаны предложения и рекомендации по разработке теоретических и практических основ решения проблемы.*

Ключевые слова: *дети, информационное общество, вредная информация, информационный иммунитет, защита от вредной информации, право.*

Abstract: *This article analyzes factors that negatively affect the spirituality, morality and psyche of children in the information society. The national legal framework for protecting children from information harmful to their health and issues of liability are systematically studied. The article also addresses the issues of protecting children from moral dangers and developing their moral immunity. Based on the analysis, proposals and comments were developed for the development of theoretical and practical foundations for solving the problem.*

Key words: *children, information society, harmful information, information immunity, protection from harmful information, law.*

KIRISH

Yurtimizda kelajakda amalga oshiriladigan islohotlar jarayonini, ya’ni kuchli fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlat qurishdek ezgu maqsadimizni aholining asosiy qismini tashkil etuvchi bolalar ishtirokisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Demokratik jamiyat rivojiga xizmat qiluvchi bir qancha omillar bor. Shulardan biri, hech shubhasiz, bolalarni zararli axborotlardan himoya qilish, ularning huquqiy savodxonligi va ularda zararli axborotlarga qarshi immunitetning shakllanganligidadir. Bugungi axborot asrida kelajak avlodning hali shakllanib ulgurmagan dunyoqarashi, nozik ruhiyatiga ziyon yetkazmasdan voyaga yetkazish mushkul masalalardan biriga aylanmoqda.

ASOSIY QISM

Respublikamizda o‘sib kelayotgan yosh avlodning ruhiyatiga ta’sir etuvchi turli xil zararli axborotlardan himoyalashning muayyan darajada qonuniy asoslari yaratilgan. **O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasida** belgilanishicha, har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega, davlat Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi, axborotni izlash, olish va tarqatishga bo‘lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo‘lgan doirada yo‘l qo‘yiladi[1;21]. Demak, har bir inson, jumladan bolalar ham o‘zlari xohlagan axborotlardan foydalanishlari mumkin, ammo bu

axborotlar ularning barkamol rivojlanishlariga ziyon yetkazmasligi lozim. Shuningdek, Bosh Qomusimizning 81-moddasida, ommaviy axborot vositalari erkinligi va qonunga muvofiq ishlashi ko‘rsatilgan. Shunga ko‘ra, davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo‘lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi, ommaviy axborot vositalari o‘zi taqdim etadigan axborotning ishonchliligi uchun javobgardir[2].

“O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi qonunda yoshlar orasida odob-ahloqni buzishga, jumladan zo‘ravonlik, hayosizlik va shafqatsizlikni targ‘ib qilishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlar, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 16-moddasida esa pornografiya, shafqatsizlik va zo‘ravonlikni namoyish etuvchi, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, bolalarga zararli ta’sir ko‘rsatuvchi va huquqbuzarliklar sodir etishlariga sabab bo‘luvchi ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, adabiyotlarni tarqatish hamda filmlarni namoyish etishning taqiqlanishi belgilab qo‘yilgan. Shu bilan birga ushbu moddada, har bir bola o‘zining sog‘lig‘i, ahloqiy va ma’naviy kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan axborotni olish huquqi ta’minlangan. Shuningdek, har bir bola har qanday axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega, faqat qonunda nazarda tutilgan cheklashlar bundan mustasno[3;29].

Qonunchilik palatasi tomonidan 2017 yil 15 avgustda qabul qilingan, Senat tomonidan 2017 yil 24 avgustda ma’qullangan “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni O‘zbekistonda bolalarni zararli axborotlardan himoya qilish tizimini yangi bosqichga ko‘tardi. Mazkur normativ huquqiy hujjatlarni amalda ishlashini ta’minlash mamlakatimizda axborot xavfsizligi sohasini boshqarishda muhim hisoblanadi. Ta’kidlash kerak, “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunda nafaqat bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi hamda ushbu faoliyatda ishtirok etuvchi organlar va tashkilotlar vakolatlari belgilab berilgan, balki bolalar uchun xavfli hisoblanuvchi axborotlar doirasi, axborot mahsulotining yoshga oid tasnifi, axborot mahsulotining aylanishiga qo‘yiladigan talablar, axborot mahsulotining ekspertizasi va uning huquqiy oqibatlari ham aniqlashtirilgan[4]. Hozirda televideniya orqali efirga uzatilayotgan har bir axborot mahsuloti tekshiriladi, ekspertizadan o‘tkaziladi hamda yoshga oid tasnifi ham belgilangan holda uzatiladi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarori[5] bilan “Axborot mahsulotining yoshga oid tasniflarini aniqlash mezonlari hamda uni ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi hamda “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishni ta’minlashga doir ma’muriy va tashkiliy chora-tadbirlar, dasturiy-apparat va texnika vositalariga doir talablarni belgilash to‘g‘risida”gi nizomlar tasdiqlanganligi va bu hujjatlar bugungi kun uchun ayni muddao bo‘lganligini e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 8 iyundagi 317-son qarori asosida my.gov.uz portalida “Bolalar sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish bo‘yicha ekspertlarni akkreditatsiya qilish” xizmati ishga tushirilganligi ham bir yutuq desak mubolag‘a bo‘lmaydi[6].

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 189-moddasiga ko‘ra, pornografik mahsulotlarni tarqatgan, reklama qilgan, namoyish etish maqsadida tayyorlagan yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirgan shaxslar ma’muriy javobgarlikka tortiladi. Shuningdek, uni tayyorlash, tarqatish, reklama qilish va namoyish etish vositalari musodara qilinadi, fuqarolarga eng kam ish haqining ellik baravaridan to‘rt yuz baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa yuz baravaridan to‘rt yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi[7].

Ushbu Kodeksning 189^1-moddasida esa, zo‘ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ‘ib qiluvchi mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida tayyorlash yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, xuddi shuningdek uni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish,- zo‘ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ‘ib qiluvchi mahsulotni, uni tayyorlash, tarqatish, reklama qilish, namoyish vositalarini musodara qilib, fuqarolarga eng kam ish haqining ellik baravaridan to‘rt yuz baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa yuz baravaridan to‘rt yuz ellik

ISSN 2181-9572

baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi[7].

Mazkur Kodeksning 184[3]-moddalarida diniy ekstrimizm, separatizm va aqidaparastlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan, qirg‘in solishga yoki fuqarolarni zo‘rlik bilan ko‘chirib yuborishga da’vat etadigan yohud aholi orasida vahima chaqirishga qaratilgan materiallarni tayyorlash yoki ularni tarqatish maqsadida saqlash, diniy mazmundagi materiallarni tarqatish maqsadida qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish yoki tarqatish hamda milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ‘ib qiluvchi materiallarni tarqatish maqsadida tayyorlash, saqlash va tarqatish hollarida qonunda ko‘rsatilgan tegishli jazo choralari qo‘llaniladi[8;78].

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 130-moddasida belgilanishicha, namoyish qilish yoki tarqatish maqsadida pornografik mahsulotlarni tayyorlash, shuningdek, ularni yigirma bir yoshga to‘lmagan shaxslar o‘rtasida namoyish qilish yoki tarqatish, shunday harakatlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, eng kam oylik ish haqining to‘rt yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlariga jalb etish bilan jazolanadi[9;72]. Mazkur Kodeksning 130[1]- moddasida keltirilishicha, tazyiqni, zo‘ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ‘ib qiluvchi mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida tayyorlash yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, xuddi shuningdek uni reklama qilish, namoyish etish, tarqatish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog‘ida reklama qilish, namoyish etish, tarqatish, shunday harakatlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa bazaviy hisoblash miqdorining to‘rt yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi[10].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda tezlik bilan hayotimizga kirib kelayotgan axborotlarni yaxshi-yomonga yoki to‘g‘ri-noto‘g‘riga ajratish juda murakkab bo‘lib bormoqda. Shuning uchun ham mazkur jarayonda barchaning ogohligini ta’minlash zaruriyati ham ortmoqda. Fikrimizcha, muammoni bartaraf etishning nazariy va amaliy asoslarini rivojlantirish lozim:

Amaliy jihatdan. Bolalarni zararli axborotlardan himoya qilishda masalaning ikki tomoniga e’tibor qaratish zarur. Bunda:

***Birinchidan**, bolalar axborot qabul qilish manbalaridagi axborotlarning beziyonligiga erishish ya’ni, sog‘lom axborot muhitini yaratish*. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- axborot muhitida yoshlarni zararli axborotlardan himoyalash bo‘yicha yagona davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish;
- axborot xavfsizligini ta’minlash uchun davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish;
- bolalarni zararli axborotlardan himoyalashning ta’sirchan mexanizmini yaratish va ishga tushirish;
- bolalarni zararli axborotlardan asrash borasida ijtimoiy sherikchilik tizimini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish;
- O‘zbekistonda bolalar uchun zararli bo‘lgan saytlar, domenlar, tarmoqdagi elektron manzillar va veb-sahifalarning yagona reyestrini tuzish va ulardan foydalanishni bolalar yoshiga nisbatan differensial tarzda cheklash bo‘yicha nazoratni kuchaytirish;
- axborotning turi va mazmuniga ko‘ra mutanosib ravishda, psixolog, pedagog va boshqa zarur mutaxassislarning ilmiy xulosalariga tayangan holda bolalar yoshi nuqtai nazaridan differensial yondoshish hamda axborotlar e’lon qilishdan oldin shartli belgilarni namoish qilish orqali bolalarni zararli axborotlardan himoya qilish mexanizmini yanada takomillashtirish;
- Mobil telefonlarga xizmat ko‘rsatadigan (musiqa, klip, videorolik va boshqa turdagi xizmat ko‘rsatish) joylar, internet kafelar va CD, DVD disklar bilan savdo qiladigan shahobchalar faoliyatini qattiq nazorat ostiga olish va ularning javobgarligini oshirish;
- Import qilinayotgan tovarlarning axborot xavfsizligi nuqtai nazaridan sifatini tekshirish va bolalar uchun zararli bo‘lgan rasmlar, ramzlar, yozuvlarga ega tovar(kiyim-kechak, konsleriya tovarlari, uyinchoqlar va x.k) lar importi va savdosini cheklash;
- axborot tarmoqlarida ishlovchi axborot xavfsizligi bo‘yicha mutaxassislar malakasini oshirish va ularni oliy tayyorlov tizimini tashkil etish;
- soha buyicha ilmiy-amaliy anjumanlar utkazilib, yangi taklif va mulohazalarga ega bo‘lish.

***Ikkinchidan**, bolalarda "axborot immunitetini" shakllantirish.*

Jahon axborot maydonida tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o‘rab-chirmab, "uni o‘qima, buni ko‘rma" deb bir tomonlama tarbiya berish, uning atrofini "temir devor" bilan o‘rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to‘g‘ri kelmaydi. Darhaqiqat, bolalarni zararli axborotlardan asrash masalasiga biryoqlama qarash ya’ni zararli axborotlardan cheklash orqali yechim izlash samarasiz hisoblanadi.

XX asrda insoniyatga yadro quroli katta xavf solgan bo‘lsa, axborot asri deb nom olgan XXI asrga kelib, ayrim g‘arazli maqsadlarni qo‘zlagan axborot xurujlari xalqlar, davlatlar, bir so‘z bilan aytganda bashariyat taqdirini tahlikaga solmoqda. Binobarin, "g‘oyaga qarshi g‘oya, mafkuraga qarshi mafkura, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashmoq lozim", degan qoidaga amal qilgan holda, asosiy e’tiborni yoshlarimizda o‘ziga xos "mafkuraviy immunitet"ni shakllantirishga qaratish zarur. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- mahallalarda ota-onalar va bolalar o‘rtasida zarali axborotlar, uning salbiy oqibatlari, undan himoyalanish usullari to‘g‘risida muntazam targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish ;
- ommaviy axborot vositalarida muntazam ravishda zararli axborotlar to‘g‘risida aholini xabardor qilish;
- ta’lim muassalarida bolalarga "Axborotlarning zararli ta’siri va ulardan himoyalanish choralari" yuzasidan maxsus fanlar o‘qitilishi;
- har bir shaxs ogoh bo‘lishi va o‘zining ijobiy qat’iy pozitsiyasiga ega bo‘lishi;
- axborotdan ommaviy foydalanuvchilar malakasini kompleks ravishda oshirish lozim.

Nazariy jahatdan quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- ilmiy hamda ommabop adabiyotlar soni va sifatini oshirish;
- bolalarni zararli axborotlardan asrashning qonuniy asoslarini mustahkamlash, qo‘shimchalar kiritish yoki aynan yosh avlodni barkamol rivojlanishiga ziyon yetkazuvchi axborotlardan himoya qilishning barcha jihatlarini qamrab olgan yangi qonun qabul qilish;
- bu sohadagi sodir etilgan huquqbuzarliklarga javobgarlikni kuchaytirish va jazo choralarini yanada oshirish;
- xorij tajribasini o‘rganib, uning O‘zbekiston sharoitiga mos jihatlaridan yangi qonun loyihasini ishlab chiqishda ijodiy foydalanish;
- Jahon ochiq tarmoqlaridan foydalanuvchilarning axborot resurslari bilan ishlash borasidagi mas’uliyati, majburiyatlari, huquqlarining reglamentini belgilovchi milliy qonun qoidalar ishlab chiqish lozim.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, bolalar ruhiyati o‘ta nozik, axborotlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri, ya’ni uni idrok etmagan holda, tahlilsiz qabul qiladilar. Shu bois, bolalarni zararli axborotlardan himoya qilishda davlat va jamiyat hamjixatlikda xarakat qilmog‘i lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. (Murojaat qilingan sana: 06.10.23) https://lex.uz/docs/6445145
3. "Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni./Mas’ul muharrir A.X.Saidov.-T.:Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2008. - Б.29.
4. "Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (Murojaat qilingan sana: 06.10.23). https://lex.uz/docs/3333797
5. «Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori (Murojaat qilingan sana: 06.10.23). https://lex.uz/docs/4013413
6. Xolmurodov A. Bolalarni zararli axborotlardan himoya qilish sohasidagi huquqiy islohotlar (Murojaat qilingan sana: 06.10.23). https://aoka.uz/uzb/news/1296
7. O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi (Murojaat qilingan sana: 06.10.23). https://www.lex.uz/acts/97664
8. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. . – T.:Adolat, 1999. – Б.78
9. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi: (2008 yil 1 iyulgacha bo‘lgan o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan qayta nashri) Rasmiy nashr – O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi.-T.: «Adolat», 2008. – Б.72
10. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (Murojaat qilingan sana: 06.10.23). https://lex.uz/docs/111453